




2020- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **3785,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilga nisbatan **101,5 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 mingtaga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **104,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **60,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **116,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **9,0 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **114,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **30,7 %**) o'sishidir.



**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.01.2020- yil	01.01.2021- yil	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2148	2325	108,2
Nukus sh.	1108	1155	104,2
tumanlar			
Amudaryo	58	61	105,2
Beruniy	105	111	105,7
Bo'zotov	3	20	666,7
Qorao'zak	34	40	117,6
Kegeyli	47	60	127,7
Qo'ng'iro't	83	105	126,5
Qonliko'l	38	35	92,1
Mo'ynoq	35	45	128,6
Nukus	90	93	103,3
Taxiatosh	64	79	123,4
Taxtako'pir	26	24	92,3
To'rtko'l	163	186	114,1
Xo'jayli	98	117	119,4
Chimboy	47	54	114,9
Shumanay	45	44	97,8
Ellikqal'a	104	96	92,3


Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan
01.01.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: Respublikada soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Nukus sh. (49,7 %), To'rtko'l tumani (8,0 %) va Xo'jayli (5,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **290,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan 2019- yilga nisbatan **69,4 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi, o'tgan yilga nisbatan **3,5 %** punktga kamayib, **7,7 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi: Qo'ng'irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **35,5 %** i, yoki 2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **62,5 %**), Taxiatosh tumani, (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **30,9 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **67,5 %**), Kegeyli tumani, (jami qurilish ishlari hajmining **15,4 %** i, yoki o'tgan yilga nisbatan **57,1 %**) va Ellikqal'a tumani (jami qurilish ishlari hajmining **8,6 %** i, yoki o'tgan yilga nisbatan **167,8 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **73,8 %** i to'g'ri kelib, 2019- yil ko'rsatkichiga nisbatan **6,0 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **110,5 %** ni tashkil etgan holda **2795,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **18,5 %** ni tashkil etdi yoki **700,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **89,5 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **204,0** mlrd. so‘m yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3581,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-dekabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **61,9 %** i yoki **2341,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

61,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **161,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,7 %** ni tashkil etdi.

55,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1550,4** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,5 %** ni tashkil etdi.

55,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **629,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **89,9 %** ni tashkil etdi.

89,9 %






2020- yilning yanvar-dekabr oylarida
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3785,9	101,5	100,0
Nukus sh.	1214,7	90,7	32,1
tumanlar:			
Amudaryo	169,1	129,0	4,5
Beruniy	219,9	109,3	5,8
Bo'zotov	55,4	115,0	1,5
Qorao'zak	57,7	105,4	1,5
Kegeyli	101,3	118,4	2,7
Qo'ng'iro't	370,4	100,7	9,8
Qonliko'l	82,4	102,8	2,2
Mo'ynoq	183,6	131,9	4,8
Nukus	192,9	100,3	5,1
Taxiatosh	184,6	100,0	4,9
Taxtako'pir	85,3	136,5	2,2
To'rtko'l	344,8	107,5	9,1
Xo'jayli	221,7	90,1	5,9
Chimboy	80,6	117,3	2,1
Shumanay	60,7	122,5	1,6
Ellikqal'a	160,8	100,2	4,2

Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,9 %** ni tashkil etib, 2019- yillik ko'rsatkichga nisbatan **0,7 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulushi 2019- yillik ko'rsatkichga nisbatan **4,8 %** punktga ko'payib, **70,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yillik ko'rsatkichga nisbatan **4,1 %** punktga kamayib, **26,8 %** ni tashkil etdi.

ulushi, % da






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,3 %** ni tashkil etdi va 2019- yilga nisbatan **5,0 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **77,7 %** (**5,0 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilga nisbatan **13,0 %** punktga kamaydi va **14,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **85,3 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilga nisbatan **13,0 %** punktga ko'paydi.


ulushi, % da



2019- yil



2020- yil
yanvar-dekabr




**Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-dekabr oylarida**

mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3785,9	290,7	2795,2	700,0
Nukus sh. tumanlar	1214,7	29,2	1124,6	60,9
Amudaryo	169,1	5,3	89,1	74,7
Beruniy	219,9	0,8	97,7	121,4
Bo'zotov	55,4	0,3	51,4	3,7
Qorao'zak	57,7	0,8	47,5	9,4
Kegeyli	101,3	15,6	68,4	17,3
Qo'ng'iro't	370,4	131,6	201,4	37,4
Qonliko'l	82,4	2,6	47,0	32,8
Mo'ynoq	183,6	8,2	147,7	27,7
Nukus	192,9	5,8	143,4	43,7
Taxiatosh	184,6	57,1	99,9	27,6
Taxtakopir	85,3	0,4	71,1	13,8
To'rtko'l	344,8	4,5	231,8	108,5
Xo'jayli	221,7	13,6	173,5	34,6
Chimboy	80,6	0,8	45,3	34,5
Shumanay	60,7	0,3	42,2	18,2
Ellikqal'a	160,8	13,8	113,2	33,8

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus sh. (1214,7 mlrd. so'm) Qo'ng'iro't (370,4 mlrd. so'm), To'rtko'l (344,8 mlrd. so'm) va Xo'jayli (221,7 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika
boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91